

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milliy forumi o'tkazildi

// 01 June 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kimyo-sanoati-yosh-mutaxassislari-milliy-forumi-utkazildi>



Joriy yilning 27-may - 1-iyun kunlari "O'zkimyosanoat" Aksiyadorlik jamiyati, tizim korxonalari hamda Kimyo va farmatsevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi bilan hamkorlikda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar oromgohida" "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" ilmiy-intellektual xakatoni bo'lib o'tdi. Mazkur xakaton "Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot" kimyo haftaligi doirasida o'tkazildi.

Ushbu xakatonda "O'zkimyosanoat" AJ tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar, D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universiteti Toshkent shahri filiali, Toshkent kimyo-texnologiya instituti hamda Yangi O'zbekiston universiteti talabalari — jami 200 nafar yoshlar ishtirok etdi.

Bugungi kunda "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 5193 nafar yosh mutaxassislar mehnat faoliyatini olib boradi. Ulardan 3417 nafari erkak, 1776 nafari ayol. Yoshlardan 63 nafari rahbar lavozimida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni ijrosini ta'minlash, kimyo sanoati yosh mutaxassislarning malaka va tajribalarini oshirish, ilm-fan va ishlab

chiqarish o'rtasida integratsiya jarayonlarini kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan ushbu milliy forum yoshlar uchun bilim-malaka oshirish, do'stlar orttirish, iste'dodini aniqlash, jamoaviy ishlash, tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga boy o'tdi.



Forumning dastlabki kuni yoshlar D.I.Mendeleyev nomidagi RKTUda bo'lib, OTMda sohaning bo'lajak mutaxassislari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. So'ngra Chirchiq kimyo-industrial texnoparkiga yoshlar uchun ekskursiya tashkil etildi. Ishtirokchilar texnoparkdagi ishlab chiqarish jarayonlariga guvoh bo'lishdi.

Sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, mutaxassislarning har tomonlama yetuk kadr bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsadida forum dasturida sport tadbirlari keng o'rin egallagan. Xakatonning 2-kunida ishtirokchi yigit-qizlar o'rtasida stol tennisi, shaxmat-shashka, voleybol, armrestling kabi sport turlari bo'yicha 7 ta musobaqa tashkil etildi. Yoshlar o'z korxonalar va OTMlari sharafini himoya qilib, ularda faol ishtirok etdi.

Xakaton mobaynida shaxsiy brend, notiqlik san'ati, taym-menejment, mediamadaniyat, psixologiya bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega ekspertlar tomonidan mahorat darslari o'tkazildi. Jurnalist Aisha Xushnazarova, ekspert Salay Matkarimov, trener, PhD tadqiqotchi Akobir Abdullayev, psixolog Go'zal Utabekovalar o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashishdi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida keng ommalashgan "Zakovat" intellektual o'yini ham bo'lib o'tdi. Unda ishtirokchilardan tashkil topgan 24 ta jamoa "O'zkimyosanoat AJ rahbari kubogi" uchun bahs olib bordi.



Toshkent kimyo-texnologiya instituti talabarlari intellektual o'yinda zukkolik va jamoaviy ahillikni namoyon etib, 1-o'rinni egalladi. "Yangi O'zbekiston" universitetining bilimga chanqoq talabalaridan tashkil topgan 2 ta jamoaga 2-va 3-o'rinlar nasib etdi.

"Kimyo sanoati yosh mutaxassislari milliy forumi"ning muhim tadbiri "Eng yaxshi innovatsion g'oya" ko'rik-tanlovi yosh mutaxassislarning yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, sanoatda tejamkor texnologiyalarni samarali qo'llash, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiluvchi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Tanlovda yoshlarga ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammoli vaziyatlarga innovatsion yechim taklif qilish vazifasi berildi. Uning doirasida ishtirokchilar tomonidan 20 ta innovatsion loyihalar taklif qilindi. Yoshlar soha mutaxassislariga o'z takliflarini taqdimot qilishdi.

Loyihalar energotejamkorligi, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini yengillashtiruvchi va modernizatsiya qiluvchi, yangi mahsulotlar hamda ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

"Eng yaxshi innovatsion g'oya" sifatida e'tirof etilgan loyihalar korxonalarda amalda tatbiq etilishi ko'zda tutilgan.





Tadbirda "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruv raisining o'rinbosari Akobir To'xtayev bilan birgalikda rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi. Unda Jamiyat tarmoq korxonalari rahbarlari, D.I.Mendeleyev nomidagi RKTU, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Yangi O'zbekiston universiteti vakillari ham ishtirok etib, yoshlar bilan suhbat qurishdi. Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. Samimiy va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuvda ishtirokchilarning takliflari tinglandi.

Forum mehmonlari -O'zbek milliy akademik drama teatri san'atkorlari bilan o'tkazilgan madaniy tadbir ham yoshlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Milliy forumning tantanali yopilish marosimida "Zakovat" intellektual o'yini, sport musobaqalari, "Eng yaxshi innovatsion g'oya" ko'rik-tanlovlarida g'olib bo'lgan ishtirokchilar munosib taqdirlandi. Ularga pul mukofotlari, diplom-sertifikatlar, qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuning bilan yosh kimyogarlar uchun o'ziga xos voqelikka aylangan "Kimyo sanoati yosh mutaxassislari" milly forumi o'z nihoyasiga yetdi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati







Reja:

imoiy tarmoqlarda o'zbekistonlik nechta foydalanuvchilar bor?
Statistik ma'lumotlar

ararli deb o'ylagan tarmoqlarni bloklash yechim bo'la oladimi?
ediaimmunitetni qanday shakllantiramiz?

Uzkimyosanoat

uzkimyosanoat uzkimyosanoat.uz (+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat AJ MATBUOT XIZMATI



Uzkimyosanoat

uzkimyosanoat uzkimyosanoat.uz (+99878) 140-74-26

Uzkimyosanoat AJ MATBUOT XIZMATI







